

Shohida Alimova

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Saidova Zulfiya O'roqovna

Xorijiy tillar kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada atoqli o'zbek yozuvchisi Said Ahmadning "Buqalamun bilan uchrashuv" hikoyasida, XX asrning 40–50-yillarda, aks etgan murakkab ijtimoiy-siyosiy davr - qatag'onlik davri, uning inson ruhiyati - psixologiyasiga kuchli ta'sirini ochib berishga asosiy e'tibor qaratildi. Buqalamun ma'juziy obrazi orqali hokoya qahramoni - Diyorov va unga o'xshagan kimsalarning jamiyat hayotida tutgan o'ziga xos o'rni, qarashlari va kamchiliklari royi rost ochib berishi talqin qilinadi.

**Kajit so'z va iboralar:** Said Ahmad, Diyorov, buqalamun, ma'juziy obraz, muhit, siyosat, salbiy obraz, hikoya qahramoni, nopoklik, laganbardorlik, adashish, inson, sifat, andisha, qatag'on qurbonlari, mafaat, din, qadriyat, ma'naviy o'zgaruvchanlik...

**Аннотация:** В статье рассматривается сложный социально-политический период – эпоха репрессий – отражённый в рассказе «Встреча с хамелеоном» известного узбекского писателя Саида Ахмада 40-50-х годов XX века, и его сильное влияние на человеческую психику и психологию. Через образа хамелеона интерпретируются взгляды и недостатки основного героя рассказа – Диёрова и подобных ему людей в жизни общества.

**Ключевые слова и фразы:** Саид Ахмад, Диёров, хамелеон, метафора, окружающая среда, политика, негативный образ, герой рассказа, наглость, лень, ошибка, человек, качество, мысль, жертвы репрессий, выгода, религия, ценность, духовные перемены...

**Abstract:** This article examines the complex socio-political period—the era of repression—reflected in the short story "Meeting with a Chameleon" by renowned Uzbek writer Said Akhmad from the 1940s and 1950s, and its profound impact on the human psyche and psychology. Through the image of a chameleon, the unique place, views, and shortcomings of the story's, and others like him in society are interpreted.

**Key words and phrases:** Said Akhmad, chameleon, metaphor, environment, politics, negative image, story hero, impurity, laziness, error, human, quality, thought, victims of repression, profit, religion, value, spiritual change...

O'zbek xalqining sevimli yozuvchisi — Said Ahmad ijodining yorqin namunalaridan biri — "Buqalamun bilan uchrashuvi" hikoyasidir. Bu asar o'zbek nasrida XX asrning murakkab ijtimoiy-siyosiy davri, xususan, 40–50-yillardagi qatag'onlik dahshatlarining inson ruhiyatiga ta'sirini ochib beruvchi chuqur psixologik asar sifatida muhim ahamiyatga ega. Biz, aynan, Diyorov obrazi va uning "Soxta Qahramon"liklari haqida to'xtalmoqchimiz.

Aytishimiz mumkinki, hikoyaning markaziy nuqtasi Diyorov obrazi atrofida jamlangan. Adib bu obraz orqali davrning qo'rqinchli "aqidalariga" ko'r-ko'rona ergashgan, shaxsiy manfaati va mansabi yo'lida insoniy qadriyatlarni, g'ururi va hatto diniy qadriyatlarini oyoq osti qilgan shaxs timsolini yaratadi.

Said Ahmadning qahramonni aynan "Buqalamun" deb atashi, obrazning ma'naviy o'zgaruvchanligini, ya'ni tashqi sharoitga qarab "rang" (qarash, g'oya, sadoqat) o'zgartirish xususiyatini chuqur ramziy ma'nolarda o'z ifodasini topgan.

Diyorovning asosiy xususiyati uning lagambardonligi va mutlaq ikkiyuzlamachiligidadir. Adib, Diyorovning nutqi orqali, uning bu sifatini yorqin ochib berishga harakat qiladi.

Hikoyaning boshlanishida, suhbatdoshiga murojaat qilar ekan, Diyorovning o'zini ko'rsatishga urinishi, masalan, unga "xizr" deb murojaat qilib, bir vaqtlar o'zini o'sha "buyuk g'oyaga" bag'ishlagan insonlar haqida yomon gaplarni aytishi uning sadoqatining soxtaligini ko'rsatib beradi. Uning uchun mafkuraviy sadoqat faqatgina mansabga yetishish uchun vosita, xolos.

Diyorovning o'zining familiyasini bir necha bor g'urur bilan o'zgartirgani haqida gapirishi uning qanday tuban darajaga tushganini ifodalaydi.

> Adibning ta'kidlashicha, Diyorov: "qaysi mansabdor xalqqa yaxshi ko'rinsa, shu odamning nomiga o'tgan. Agar u qoralansa, boshqa mansabdorning familiyasiga o'tishga tayyor turgan".

>

Diyorov shunday deydi . "Men otamdan Vos kechganman. Ikromov degan familiyani tanladim . Ikromov xalq dushmani bo'lib ketgandan kiyin ,Yusupov- deb o'zgartirdim". Otirganlar orasida kimdir piching qildi: "Xo'sh, shu familiya bilan tinchlandizmi",- deb. "Usmon Yusupov bilan Xrushchevning orasi buzilgandan kiyin o'ylab-o'ylab bir umrlik qo'ydim, ya'ni, Diyorov, - deb, boshpo'rt oldim". Bu uning qanchalik lagnabardonligini ko'rsatadi.

Bu qahramonning "ikkiyuzlamachiligi"ni, shamol qaysi tomonga essa, o'sha tomonga og'ishga tayyor turishini yaqqol ko'rsatib beradi. Asarning g'oyaviy markazi Diyorovning o'z otasidan kechishi va dinga bo'lgan munosabati atrofida qurilgan. Totalitar tuzum sharoitida mansabga erishishning eng "ishonchli" yo'li — o'z oilasidan, ayniqsa "eski tartib" vakili hisoblangan otasidan yuz o'girish edi. Diyorov bu yovuzlikka qo'l urib, o'zining oqqadarligini isbotlaydi. Bu, aslida, uning nafaqat otasi, balki o'z e'tiqodi va insoniy qadriyatlaridan ham voz kechganini anglatadi.

Adibning Diyorov obraziga bevosita ta'rif berar ekan, uning "mansab va shaxsiy manfaati yo'lida hattoki dinidan kechish kabi yovuz ishlarga borishi",- bu fojining yorqin misoli ekanligini aytadi.

Hikoyaning kulminatsion nuqtasi va eng fojiali yechimi Diyorovning taqdiri bilan bog'liq. U hayotining oxirida o'zi intilgan barcha mansab, sharaf va "buyuklik"dan mahrum bo'ladi. Uning jasadi ko'chada qolishi, ya'ni hatto o'lik hoida ham insoniy hurmatga sazovor bo'lmasligi — qahramonning xor bo'lishini ifodalaydi.

Said Ahmad bu epizod orqali “shuhratparastlik”ning oxiri yaxshilik bilan tugamasligini qat’iy ta’kidlaydi.

Xulosa. Said Ahmad “Buqalamun bilan uchrashuv” asari orqali nafs, xiyonat va manfaatparastlikning insonni ikki dunyo saodatidan mahrum etishini yorqin voqeliklar va obrazlar misolida ko’rsatib bera oldi. Ayniqsa, asar qahramoni Diyorov timsolida, o‘z manfaati yo‘lida dinidan, otasidan kechgan insonlarning g‘ayriinsoniy, ya’ni “buqalamun”ga xos xususiyatlarga ega bo‘lib qolishini fosh etdi. Demak, asar, aynan, shuning uchun ham, “Buqalamun bilan uchrashuv,- deb nomlangan. Ushbu hikoya XX asr o‘zbek nasrida inson ruhiyatini chuqur tahlil qilgani bilan qimmatlidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Said Ahmadning "Qorako'z majnun "kitobidan  
Badiiy obraz taxlili uchun Wikipedia sayiti